

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI  
SHARQ XALQLARI TILLARI VA ADABIYOTI INSTITUTI  
XITTOYSHUNOSLIK OLIY MAKTABI HUZURIDAGI CREATIVE  
WRITING MARKAZI (SHANXAY UNIVERSITETI IJODKORLIK  
MARKAZI) NING 2025–2026 O‘QUV YILI YAKUNI BO‘YICHA  
HISOBOTI**

Creative Writing markazi (Shanxay universiteti ijodkorlik markazi) faoliyati 2025–2026 o‘quv yili uchun tasdiqlangan ish rejasiga muvofiq amalga oshirildi. Markazning asosiy maqsadi talabalarning ijodiy fikrlash, akademik yozuv, badiiy tarjima va ilmiy tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti hamda Shanxay universiteti o‘rtasidagi ilmiy-madaniy hamkorlikni mustahkamlashdan iborat bo‘ldi. Markaz faoliyati davomida rejaning barcha bandlari bo‘yicha tegishli ishlar olib borildi.

### **1. Tashkiliy yig‘ilish**

2025-yil sentyabr oyida markaz a‘zolari ishtirokida tashkiliy yig‘ilish o‘tkazildi. Yig‘ilish davomida markazning yillik ish rejasi muhokama qilinib, ustuvor vazifalar belgilandi. Markaz faoliyatiga qiziqish bildirgan talabalar ro‘yxati shakllantirildi hamda faol a‘zolar orasidan mas’ullar tayinlandi.

### **2. “Yosh xitoyshunos olimlar” ilmiy to‘garagi faoliyati**

2025-yil oktyabr oyida “Yosh xitoyshunos olimlar” ilmiy to‘garagi tashkil etildi. To‘garak doirasida talabalarning ilmiy maqola yozish, ilmiy tadqiqot olib borish, konferensiyalarda qatnashish va taqdimot tayyorlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar muntazam tashkil etildi. O‘quv yili davomida to‘garakning bir qator ilmiy seminar va davra suhbatlari o‘tkazildi.






### **3. “Ibrat farzandlari” loyihalar ofisiga tashrif**

O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligining “Ibrat farzandlari” loyihasi ofisiga tashrif buyurdilar.

Tashrif davomida talabalar loyiha faoliyati, yoshlarning xorijiy tillarni o‘rganishi va zamonaviy ta’lim platformalari orqali bilim olish imkoniyatlari bilan yaqindan tanishdilar. Shuningdek, loyiha mutaxassislari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar, kelgusidagi rejalar hamda yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar haqida batafsil ma’lumot berildi. Mazkur tashrif talabalarning bilim va tajribasini oshirish, ularni yangi loyihalar hamda tashabbuslarga jalb etish nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etdi.





#### **4. Ijodiy yozuv va akademik matn yaratish faoliyati**

Markaz tomonidan o‘quv yili davomida o‘zbek va xitoy tillarida badiiy, ilmiy-ommabop hamda jurnalistik matnlar yaratish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar tashkil etildi. Talabalar maqola, esse va tahliliy matnlar yozish bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘ldilar. Mashg‘ulotlar natijasida talabalarning yozma nutq madaniyati va akademik savodxonligi sezilarli darajada oshdi.



#### **5. “Eng yaxshi filolog” tanlovi g‘olibi**

Markaz direktori PhD, dotsent Nigina Rasuleva “Til va adabiyot ta’limi” nashri tomonidan o‘tkazilgan “Eng yaxshi filolog” tanlovining navbatdagi g‘oliblari qatoridan o‘rin oldi. Olimaning “Xitoy ilmiy fantast yozuvchisi Han Song asarlaridagi obrazlarga xos fantastik elementlar” mavzusidagi maqolasi hakamlar hay’ati tomonidan yuqori baholandi.

**TIL VA ADABIYOT TA'LIMI**

## “Eng yaxshi filolog”

*tanlovining uchinchi davra g‘oliblari*

“Til va adabiyot ta’limi” tahririyati o‘tkazib kelayotgan “Eng yaxshi filolog” tanlovining navbatdagi g‘oliblari e’lon qilindi.

Hakamlar hay’ati “Til va adabiyot ta’limi” hamda “Filologiya va pedagogika” jurnallarining 2025-yil 7–9-sonlarida chop etilgan maqolalarni tanlov nizomi asosida baholadi. Unga ko‘ra, quyidagi mualliflar g‘olib deb topildi:

**Anvar BO‘RONOV**

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori  
“To‘rt bulung: bo‘sa‘adan boshlangan ochun” (2025-yil 9-son) maqolasi uchun;

**Javlon JOVLIYEV**

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori  
“Baliqchilik Robinson” (2025-yil 9-son) maqolasi uchun;

**Bashorat BAHRIDDINOVA**

Qarshi davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori  
o‘zbek tili punktuatsiyasi muammolariga doir turkum maqolalari uchun (2025-yil 6-, 7-, 8-sonlar);

**Yulduz KARIMOVA**

Farg‘ona davlat universiteti akademik litseyi o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori  
“50 kunda milliy sertifikat olish metodikasi” (2025-yil 9-son) maqolasi uchun;

**Николай ИЛЬИН**

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi xodimi, pedagogika fanlari nomzodi  
“Улыбчивая сатира Эркина Бакидова: истории кишлака Динни” (2025-yil 7-son) maqolasi uchun;

**Nigina RASULEVA**

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori  
“Xitoy ilmiy fantast yozuvchisi Han Song asarlaridagi obrazlarga xos fantastik elementlar” (2025-yil 8-son) maqolasi uchun.

**Eslatib o‘tamiz,** tanlov davom etmoqda. Navbatdagi g‘oliblar “Til va adabiyot ta’limi” hamda “Filologiya va pedagogika” jurnallarining 2025-yil 10–12-sonlarida chop etilgan maqolalar doirasida aniqlanadi. **Tanlovda faol qatnashing! Keyingi g‘olib aynan Siz bo‘lishingiz mumkin.**

**“Eng yaxshi filolog” tanlovi g‘oliblari 1 000 000 so‘mdan pul mukofoti bilan taqdirlanadi.**



## 6. Adabiy tarjima va kreativlik seminarlari


O‘quv yili davomida adabiy tarjima va kreativlikka bag‘ishlangan seminarlar muntazam ravishda o‘tkazildi. Seminarlarda o‘zbek va xitoy tillaridagi badiiy asarlar tahlil qilinib, tarjima jarayonidagi lingvistik va madaniy xususiyatlar muhokama etildi. Talabalar amaliy tarjima ishlari orqali o‘z malakalarini oshirdilar.



## **7. Ilmiy-amaliy konferensiya**

Markaz a'zolari va "Yosh xitoyshunos olimlar" to'garagi talabalari ishtirokida 2026-yil 7-may kuni "Yosh xitoyshunoslar forumi" mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etildi. Talabalar o'z ilmiy izlanishlari natijalarini taqdim etdilar va ilmiy munozaralarda faol qatnashdilar.





## 8. Xitoy oliy ta'lim muassasalari ko'rgazmasiga tashrif

Shanxay universiteti Ijodkorlik markazi (Creative Writing Center) a'zolari Xitoyning nufuzli oliy ta'lim muassasalari ishtirokidagi ta'lim ko'rgazmasida faol

qatnashdilar.

Ko'rgazma davomida talabalar Xitoy universitetlarining ta'lim dasturlari, grant va stipendiya imkoniyatlari, akademik almashinuv loyihalari hamda qabul jarayonlari haqida batafsil ma'lumotlarga ega bo'ldilar. Shuningdek, universitetlar vakillari bilan bevosita muloqot qilish imkoniyati yaratildi.

Mazkur tadbir talabalarning xalqaro ta'lim imkoniyatlari haqidagi bilimlarini kengaytirish va kelgusidagi akademik faoliyatini rejalashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi.



### **9. Shanxay universiteti bilan hamkorlik**

Hamkorlik natijasida Xitoyshunoslik oliy maktabining 4 nafar iqtidorli talabalari Mukaddam Rasulova, Nigora Barakayeva, Raximaxon Ahmedxodjayeva va Farangiz Ahmadjonovalar 22-iyun- 5-iyul kunlari Shanxay universitetining xalqaro yozgi lager dasturida grant asosida ishtirok etish uchun tavsiya etildi va tanlovdan muvaffaqiyatli o'tdi. Mazkur natija markaz faoliyatining muhim yutuqlaridan biri bo'lib, talabalar uchun xalqaro akademik va madaniy tajriba almashish imkoniyatini yaratdi.



上海大学国际教育学院  
中国上海市  
延长路 149 号  
邮政编码: 200072  
联系电话: +86-21-5633-1888  
电子邮件: apply3@oa.shu.edu.cn

College of International Education  
Shanghai University  
No.149 Yanchang Road,  
Shanghai 200072, P.R.China  
Tel:+86-21-5633-1888  
E-mail: apply3@oa.shu.edu.cn  
http://www.apply.shu.edu.cn

May. 22<sup>nd</sup>, 2026

It is with great pleasure that Shanghai University extends an invitation for the students from Uzbekistan to visit us for the program **2026 Shanghai University Global Youth Shanghai Culture Experience Camp** from June. 22<sup>nd</sup> to July. 5<sup>th</sup>, 2026.

While you are in Shanghai, you will experience Chinese Language (Mandarin), Blue calico printing, porcelain engraving, and other aspects of China from both traditional and modern perspectives through courses and visits .

Tuition fees and accommodation during the program in Shanghai will be covered by Shanghai University excluding the international round-trip flight tickets, visa fee, insurance and other personal expenses.

We hope that your visit can meet your objectives as well as ours. We also expect that your upcoming visit will facilitate and strengthen the educational relationship between Uzbekistan and China.

MUKADDAM TOKHIR KIZI RASULOVA, 05/09/1995, Uzbekistani, Female.  
BARAKAEVA NIGORA UTKIR KIZI, 12/08/2003, Uzbekistani, Female.  
RAKHIMAKHON ULUGBEK KIZI AKHMEDKHODJAEVA, 11/06/2006,  
Uzbekistani, Female.  
FARANGIZ FARHODJON KIZI AHMADJONOVA, 14/06/2006, Uzbekistani,  
Female.

We are looking forward to seeing you in Shanghai.

Yours Sincerely,

Professor LI YINGJIE 李颖洁  
Dean of College of International Education  
Shanghai University.  
Shanghai 200072  
P.R. China





2025–2026 o‘quv yilida Creative Writing markazi (Shanxay universiteti ijodkorlik markazi) tomonidan rejalashtirilgan barcha vazifalar muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Markaz talabalarning ijodiy, ilmiy va tarjimaviy salohiyatini rivojlantirish, xitoyshunoslik yo‘nalishida ilmiy faoliyatni rag‘batlantirish hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirishda muhim natijalarga erishdi. Ayniqsa, Shanxay

universitetining yozgi lager dasturiga 4 nafar talabaning grant asosida qabul qilinishi markaz faoliyatining samaradorligini ko'rsatadigan muhim yutuq bo'ldi. Kelgusida markaz faoliyatini yanada kengaytirish, qo'shma ilmiy loyihalar sonini oshirish va talabalarni xalqaro dasturlarga faol jalb etish rejalashtirilgan.

**Markaz rahbari**

**PhD, dots., N.A.Rasuleva**

**Xitoyshunoslik oliy maktabi rahbari**

**PhD, dots., F.M.Xasanova**